



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 2

2026

FARIDA AFRO‘Z SHE‘RIYATIDA LINGVOMADANIY LEKSIK BIRLIKLAR IFODASI

Topildiyeva Feruza Raximjonovna

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti, katta o‘qituvchi

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy o‘zbek she‘riyatining yorqin namoyandalaridan biri shoira Farida Afro‘z ijodida uchraydigan lingvomadaniy leksik birliklarning xususiyatlari haqida ma‘lumot berilgan. Shoiraning poetik nutqida milliy qadriyatlar, inson ma‘naviyati, tabiat tasviri ifodasi, sevgi va turmush, oila qadriyatlari, do‘stlik, xalqona tasavvurlar, tasavvufiy tushunchalar va madaniy kaloritni aks ettiruvchi so‘zlarning funksional-semantik vazifalari, mentalitet bilan bog‘liq imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: lingvomadaniyat, lingvomadaniy leksika, poetik madaniy funktsiya, Farida Afro‘z, milliy identitet, milliy kolorit.

ВЫРАЖЕНИЕ ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫХ ЛЕКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В ПОЭЗИИ ФАРИДЫ АФРУЗ

Топилдиева Феруза Рахимжоновна

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека, старший преподаватель

Аннотация

В статье представлена информация об особенностях лингвокультурных лексических единиц, встречающихся в творчестве одной из ярких представительниц современной узбекской поэзии - поэтессы Фарида Афроз. Освещаются функционально-семантические задачи слов, отражающих национальные ценности, духовный мир человека, изображение природы, любовь и быт, семейные ценности, дружбу, народные представления, суфийские понятия и культурный колорит в поэтической речи поэтессы, а также их возможности, связанные с менталитетом.

Ключевые слова: лингвокультура, лингвокультурная лексика, поэтическая культурная функция, Фарида Афроз, национальная идентичность, национальный колорит.

THE EXPRESSION OF LINGUOCULTURAL LEXICAL UNITS IN THE POETRY OF FARIDA AFRO‘Z

Topildiyeva Feruza Raximjonovna

Mirzo Ulug‘bek National University of Uzbekistan, Senior Lecturer

Abstract

The article provides information about the characteristics of linguocultural lexical units found in the works of one of the prominent representatives of modern Uzbek poetry, the poet Farida Afroz. It highlights the functional-semantic roles of words that reflect national values, human spirituality, depictions of nature, love and everyday life, family values, friendship, folk perceptions, Sufi concepts, and cultural color in the poet's discourse, as well as their possibilities connected with mentality.

Keywords: linguoculture, linguocultural lexis, poetic cultural function, Farida Afroz, national identity, national color.

Yillar mobaynida lingvokulturologiya, lingvomadaniy birliklar borasida ilmiy izlanishlar olib borilganiga qaramay, hanuzgacha yechimini topmagan muammolar mavjuddir. Bu borada shoira Farida Afroʻz zamonaviy oʻzbek sheʼriyatida oʻziga xos uslubni yaratgan sheʼriy asarlarida esa milliy madaniyatga xos tasavvurlar, mentalitetga xos obrazlar, shuningdek juda keng ifodalar tizmasini lingvomadaniy leksik birliklar bilan ifodalagan. Yana uning sheʼriyatida oʻzbekona qadriyatlarni ifoda etuvchi milliy koloritga xos soʻzlar muhim ahamiyatga ega boʻlgani bilan ayrodir. Milliy kolorit - bu sheʼriyatda hissiy voqelikni oʻziga xos tomonlarini tasvirlash boʻlib, millatga xos milliy xususiyatlar, maʼnaviy faoliyat va moddiy hayot, urf-odatlar, rasm-rusmlar jamlanmasi sifatida shakllantirilgan. Lingvomadaniy leksika - bu xalqning tarixiy tajribasi, madaniy xotirasi, urf-odatlari, qadriyatlari va mental qiyofasini aks ettiruvchi, shu xalq madaniyatiga xos qoʻshimcha maʼnoga ega boʻlgan soʻz va birikmalar majmuasi hisoblanadi. Sheʼriyatning nozik adolarini yaxshi anglab, his etadigan kitobxon Farida Afroʻzning sheʼrlarida muammolarni chuqur his va idrok bilan berilganini koʻra biladi. Farida Afroʻz qoʻllagan madaniy leksik qatlam oʻzbek xalqining oʻtmishidan meros boʻlib, shu kungacha oʻzligiga xos mentallik bilan amalda boʻlgan: urf-odatlar, estetik qarashlar va ruhiy olamni aks ettirgan voqelik yoki dunyo tizmasi sifatidagi badiiy talqinlar ifodasi jamlanmasi desak mubolagʻa boʻlmaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Farida Afroʻz sheʼriyatida lingvomadaniy leksik birliklar ifodasi mavzusini yoritishda, avvalo uning sheʼriy toʻplamlari va sheʼrlari (“Meni kuting”, “Obodim yor “sheʼriy toʻplamlarida keltirilgan” Aka”, “Ona tilim”, “Bahor”, “Ishq”) manbaa hisoblanadi. Maʼrufjon Yoʻldoshevning “Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari” va M.Kurbanova, M.Yoʻldoshevlarning “Matn tilshunosligi” ilmiy ishlarida matn tahlili haqida maʼlumotlar keltirilgan. Ammo, lingvomadaniy leksika hanuz oʻrganilmoqda. Aslida lingvomadaniy leksika ozi nima? Lingvomadaniy leksika -muayyan xalqning milliy dunyoqarashi, milliy qadriyatlari, milliy anʼana, rasm-rusm, urf-odatlari, xalqning yuzi sanalmish mentaliteti, shuningdek uzoq yillar davomida toʻplagan tarixiy-madaniy tajribasi bilan bogʻliq boʻlgan, oʻzbek xalqiga tegishli maʼno va assotsiatsiyalarni ifodalovchi soʻzlar va ifodalar majmuidir. Masalan: belbogʻ, beshik, paxsa devor, dilimni kuyladim, dilimni chaldim, yor-yor, dargoh, koʻhna, pari, tashlandiq quduq, atir soʻzim, ostona, xorigan dasturxon, duo, mehr, iztirob kuylagi, oʻzbekona tabiat va shoira meniga xos birliklar ifodasi kabilarni sanab oʻtish va ularning millatga xos milliy koloritni shakllantirishda muhim manba ekanini taʼkidlash joizdir.

Metodologiya. Maqolada Farida Afroʻz sheʼriyatida lingvomadaniy leksik birliklarning ifodalanishini oʻrganish jarayonida kompleks, tizimli hamda fanlararo yondashuv asos qilib olindi. Tadqiqot metodologiyasi lingvokulturologik tahlil, semantik-stilistik tahlil, komponent tahlil ilmiy usullari uygʻunligiga tayandi.

Tadqiqot materiali sifatida shoira sheʼriy toʻplamlari hamda sheʼrlari tanlab olindi. Tanlovda milliy qadriyatlar, ayollik tasavvuri, tabiat, muhabbat, maʼnaviyat kabi konseptlarni ifodalovchi sheʼriy matnlarga ustuvor ahamiyat berildi.

Tadqiqotning metodologik asosi zamonaviy lingvokulturologiya, poetik semantika, matnshunoslik hamda badiiy diskurs nazariyalariga tayandi. Ushbu yondashuvlar uygʻunligi Farida Afroʻz sheʼriyatidagi lingvomadaniy leksik birliklarning mazmun-mohiyatini har tomonlama ochib berish imkonini yaratdi.

Tahlil va natijalar. Shoira Farida Afroʻz ijodini oʻrganar ekanmiz, avvalo ijodidagi bu rang-baranglik, shunchaki soʻz ifodasi emas, aslida shoiraning peshonasiga bitilgan bitik,

boshiga tushgan, ko'nglida tug'ilgan taqdir kushoyishi, qolaversa, takrorlanmaydigan dil-diliga yashiringan o'ziga xos motivlaridan, boshqalardan farqli ayro uslublaridan darakdir. Masalan, pedagogika fanlari doktori Qozoqboy Yo'ldoshev "Zamonaviy o'zbek she'riyatiga Farida Afro'z chaqmoqdek chaqnab emas, kelinchakdek iymonib kirib kelgan uyiga tup qo'yib, palak yozdi, qator-qator she'riy farzandlarini dunyoga keltirib, sezdirmaygina bu uyni o'ziniki qilib oldi. Farida nafaqat birovni, hatto o'zini ham takrorlamaslikka urinadi. Shoir inson hayotining g'oyat murakkab, odamlararo munosabatlarning esa o'ta chigal ekanini chuqur anglaydi, milliy sizimlar yaqqol aks etgani uchun ham uning bitganlari kishi ko'ngliga muhrlanib qoladi",- deydi. Shuningdek, shoir o'zbek ayolining hayoti faqat o'ziga tegishli emas. U eng yaqinlari: ota, aka, uka, o'g'il, er uchun ularni nomusga qo'ymaslikka intilib yashashga mahkum. Aslida ayol oila va jamiyat oldida misoli bir ko'zgu vazifasida turgan sha'n, g'urur, suyanguvchu ojiza ekanligini ta'rifini misralarda oydinlashtiradi. Poetik lingvomadaniy funksiyani rivojlantirgan..

Aka, senga juda ham og'ir
Aka bo'lmoq peshonasi tor,
Baxti qaro, ko'zlari qaro,
Ko'nli yaro SINGLING –AYOLGA!

Esli o'zbek ayoli o'zidan oldin akasini nomusga qo'ymaslikni o'ylaydi. Keyingi to'rtlikda esa ukaga nisbat beriladi.

Uka, senga juda og'ir , Uka bo'lmoq qoshlari qalam,
To'shaklari tosh,yostig'i bardosh, Hurlarga sirdosh OPANG- AYOLGA!

Bu misralarda opaning uka bilan bur muncha yaqinligi o'ta noziklik bilan sezdirmaygina aks ettirilgan. Shuningdek, she'r misralarida yolg'iz ayolning shaxslik sifatleri, yuksakligi bilan qismatining og'irligi she'rxon tuyg'ularni larzaga soladi.

Dunyo, senga juda ham og'ir
Dunyo bo'lmoq yolg'iz ayolga!
Nomardingga xor, nolalri zor
Yegan noni or ONANG-AYOLGA!

Milliy kaloritga xos darajada boshlangan tasvir umumbashariy ko'lam kasb etadi. Aslida aka ham, uka ham shu dunyoning odamlari, biroq yolg'iz qolgan o'zbek ayolining qismati - dunyoni larzaga soladigan hodisa sifatida umuminsoniy ahamiyatga ega ekanini yaqqol namoyon etadi. Farida Afro'z she'riyatida she'riy misralariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, lingvomadaniy leksika go'yo shoiraning ichki dunyosi o'ziga xos rang-baranglik to'nini kiyib,shoir menligi tarzida lingvomadaniy leksika guruhlanadi. Bunga esa quyidagi tasnif asos bo'la oladi.

1. Milliy qadriyat va inson ma'naviyatni ifodalovchi lingvomadaniy leksik birliklar.
2. Tabiat tasviri ifodasi orqali berilgan lingvomadaniy leksik birliklar.
3. Sevgi, turmush, uy va oila qadriyatlarini ifodalovchi lingvomadaniy leksik birliklar.
4. Orzu, istak borasidagi estetik tushunchalarni ifodalovchi lingvomadaniy leksik birliklar.
5. Ijodkorning meni ,tasavvufiy qarashlarini ifodalovchi lingvomadaniy leksik birliklar.

Farida Afro'z qo'llagan leksik birlik o'zbek xalqining o'tmishidan meros bo'lib, shu kungacha o'zligiga xos mentallik bilan amalda bo'lgan: urf-odatlar, estetik qarashlar va ruhiy olamni aks ettirgan voqelik yoki dunyo tizmasi sifatidagi badiiy talqinlar ifodasi jamlanmasidir. Bu talqin, umuman olganda, ilmda lingvomadaniy leksika deb atalmoqda. Aslida lingvomadaniy leksika ozi nima? Lingvomadaniy leksika-muayyan xalqning milliy

dunyoqarashi, milliy qadriyatlari, milliy an'ana, rasm-rusm, urf-odatlar, xalqning yuzi sanalmish mentaliteti, millatning ko'zga tashlanadigan iboralari, shuningdek uzoq yillar davomida to'plagan tarixiy-madaniy tajribasi bilan bog'liq bo'lgan, o'zbek xalqiga tegishli ma'no va assotsiatsiyalarni ifodalovchi so'zlar va ifodalar majmuidir. Masalan: belbog', beshik, paxsa devor, dilimni kuyladim, dilimni chaldim, yor-yor, dargoh, ko'hna, pari, tashlandiq quduq, atir so'zim, oston, xorigan dasturxon, duo, mehr, iztirob kuylagi, o'zbekona tabiat va shoira meniga xos birliklar ifodasi kabilarni sanab o'tish mumkin. Farida Afro'z she'riyatida qo'llangan lingvomadaniy leksik birliklarni ana shu guruhlanish asosida tahlil qilinadi. Shoira ijodida lingvomadaniy leksika va birliklar muhim o'rin tutadi. She'rning ohangi va rangi, botiniy tuzilmasi, ichki zarblari, she'r tabiatiga qaytadan fusun berganday ifodalar tizilmasidan oydinlashib boraveradi. Buni quyidagi tasniflarda berilganini ko'ramiz.

Milliy qadriyat va inson, ma'naviyatni ifodalovchi lingvomadaniy leksik birliklardan ham Farida Afro'z she'rlarida juda keng va orinli ifodalar tizmasini shakllantirgan. Masalan, "Onatolim", "Maqolnoma", "Baxtningqushi", "Bo'shliq", "Ona yurtimga", "O'zbek xalq maqollariga tatabbu" kabi she'rlarida yaqqol ko'zga tashlanadi.

"Ona tilim" desam birdan

Turku turon bosh ko'tarar,

Tosh bitiklar, O'rxun xati,

Ilmu urfon bosh ko'tarar.

Ushbu she'rda, boshidan oxirigacha ma'naviyatni ifodalovchi lingvomadaniy leksika va lingvistik birliklar ifodasi berilgan. Masalan: ona tilim, turku turon, tosh bitik, o'rxun xati, Alpomish, Go'ro'g'li, Kuntug'mish, Motrudiy, Zamaxshariy, Buxoriy, Qur'on, Beruniy, Ibn Sino, Sohibqiron, Navoiy, Ulug'bek, Ali Qushchi, Mashrab, Uvaysiy, Nodira, Qodiriy, Cho'lpon, Usmon Nosir, Avloniy, Fitrat, O'zbekiston, o'zbekka xos fazilat va boshqa talqinlar ma'naviy lingvomadaniyat ifodasi sifatida bayon etilgan. Bunday ifodalarning rang-barangligi haqida filologiya fanlari doktori, professor No'mon Rahimjonov shunday deydi: "Shoiraning ko'ngli satrlarda ko'rinib turgandek tuyuladi. Ularning har biri teran mazmun mohiyatiga ko'ra ramzlarga aylanayotir. Shoiraning dil tubiga ekilgan sirlarni anglash uchun esa, ramzlar, metaforalar bir ochqich. Sirdan har bir so'z bizga tanishga o'xshaydi. Va lekin ular yangi va chuqur ma'nolari bilan avval ko'rilmagan va uchratilmagan mohiyat kasb etayotir. Ishq-muhabbat, sadoqat, xiyonat, daraxt, ona, vatan, yurakdan silqib oqqan qon, shamol, qush, yaxshi amal, yovuz niyatli, ko'zida ajinasi bor g'anim, gullar, qor, yulduzlar, nur, suv, tuproq, tuyog'idan o't chaqnagan tulpor, tiyran nigohli qizaloq, oyog'i osmonga qaragan uy, ko'z yoshlari – bular turfa xil ranglarda, ohanglarda, ma'nolarda tuslansa-da, timsolli, ramzli mohiyati bilan sehrli so'zlarga aylanayotir." Bu esa shoira ijodi haqida berilgan mushohadalardan biri xolos.

Tabiat tasviri ifodasi orqali tizilgan lingvomadaniy leksik birliklardan ham Farida Afro'z she'rlarida milliy, o'zlikka xos ma'naviy ma'nolarni uyg'unlashtirgan holda obrazli ifodalarni jamlayb beradi. Bilamizki, inson bir umr tabiatga taqlid qilib yashab keladi, bu inson umri davomida ko'zga yaqqol tashlanadi. Shoira she'rda kechinma tuyg'ularning yangi-yangi qirralarini yaratadi, she'rdan anglashilgan fikr ma'noning ohori to'kilmagan yangi qatlamlarini lingvomadaniy leksik birliklar bilan jilolantiradi. Shoiraning har bir she'rda ana shunday taxlit yangilanish o'quvchida har doim hayrat va havas hissini uyg'otadi. Masalan,

Deydilarki, bahor boshlanar,

Jilg'alarining sho'x kulgusidan,

Boychechakning tabassumi-yu,

Kurtaklarning tug'ilgusidir .

Shoiraning o'zi aytganidek: "Ko'klam libosidagi bir nur o'ziga rom etib, og'ushiga chorlashi, mudroq hislari uzra umid chechaklarini sochishi, ruhining shabnamlarga chayilishi va muattar tonglarini otishi... O'ylab qolasan bahor qayerdan boshlanar ekan-a? Ko'rinib turibdiki, shoiraning har bir fikri ila lingvomadaniy leksik birliklar tizmasi ko'zga yaqqol tashlanadi.

Yoki,
O'rik gullariga balolar yog'di,
Bolasin vaboga oldirgan ona.
Kurtaklar chirqirar, kurtaklar yondi,
Nihollar kampirga aylandi, ana.

Farida Afro'zning oddiy, mulohazaga chorlovchi she'riy misralari shakl jihatdan minimal bo'lsa-da, ammo mazmun jihatdan maksimal ma'no ifodasini beradi. Uch- to'rt so'z bilan yirik matnning ifodasini beradi.

Sevgi, turmush, oila va uy qadriyatlarini ifodalovchi lingvomadaniy leksik birliklardan ham o'rinli foydalanib, Farida Afro'z ko'p she'rlarida: sog'indim, sevgi, ishq, daraxt, yurak, sadarayxon kabi so'zlarni asosiy mazmun uzviyligiga aylantiradi.

Seni sog'inmoq, dorga ilinmoq,
Oh nega, sog'indim, shunchalar yomon.
Seni sevmog-tig'uzra yurmoq,
Oh nega sevdim, charxi dun giryon.

Bu misralari bilan shoirani faylasufona fikrlari oydinlashadi. Ushbu misrada go'yo donishmand fikrlari mujassamlashadi. Farida Afro'z qo'llagan leksik qatlam o'zbek xalqining o'tmishidan meros bo'lib, shu kungacha o'zligiga xos mentallik bilan amalda bo'lgan: urf-odatlar, estetik qarashlar va ruhiy olamni aks ettirgan voqelik yoki dunyo tizmasi sifatidagi badiiy talqinlar ifodasi, ammo ayrica jamlanmasidir. Bu talqin, umuman olganda, bu qatlam ilmda lingvomadaniy leksika deb yuritiladi. Aslida lingvomadaniy leksika ozi nima? Lingvomadaniy leksika-muayyan xalqning milliy dunyoqarashi, milliy qadriyatlari, milliy an'ana, rasm-rusm, urf-odatlari, xalqning yuzi sanalmish mentaliteti, shuningdek uzoq yillar davomida to'plagan tarixiy- madaniy tajribasi bilan bog'liq bo'lgan, o'zbek xalqiga tegishli ma'no va assotsiatsiyalarni ifodalovchi so'zlar va ifodalar majmuidir. Masalan: dorga ilinmoq, tig'uzra yurmoq, belbog', beshik, paxsa devor, dilimni kuyladim, dilimni chaldim, yor-yor, dargoh, ko'hna, pari, tashlandiq quduq, atir so'zim, ostona, xorigan dasturxon, duo, mehr, iztirob kuylagi, o'zbekona tabiat va shoir meniga xos birliklar ifodasi kabilarni sanab o'tish mumkin.

Orzu, istak borasidagi estetik tushunchalarni ifodalovchi lingvomadaniy leksik birliklardan ham shoirona tarzda foydalanib Farida Afro'z ruhiy-estetik tushunchalarni o'ziga xos tarzda, bir juft shirin so'z, ozoridil shaxdingdan, quyosh yonsa ko'zingda, bir kaft suvni, yomg'irdayin to'kilsa, eshikni shamolday qoqmoqlik kabilar iboralar orqali shakllantirgan.

Asli bir juft shirin so'z aytmoqlik ham baxt erur,
Ozoridil shaxdingdan qaytmoqlik ham baxt erur.
Har tong tirik uyg'onib, quyosh yonsa ko'zingda
Bir kaft suvni bemalol, ichmoqlik ham baxt erur.
Kimdir seni sog'inib yomg'irdayin to'kilsa,
Eshigini shamolgay qoqmoqlik ham baxt erur.

Ushbu misralarda shoiraning orzu, istak borasidagi tushunchalarni estetik nuqtayi nazardan ifodalashi shirin so'z eshitishi, har tong inson tirikligini o'zi his qilishi, sog'-u salomatligi, suvni bemalol ichishi, sog'inadigan yaqinlarining borligi va uni to'kilib kutishi, shamolday yugurib qoquvchi eshik ya'ni qadrlaydiganlarning borligini o'zi ham baxt

ekanligini samimiy tarzda kitobxonga yetkazadi. Chunki millat ibditidosida va ayni damda ham shukr, shukronalik hissini tuymoq, bir qadriyat darajasida ekanini uqtiradi.

Ijodkorning meni sifatida, tasavvufiy qarashlarini ifodalovchi -lingvomadaniy leksik birliklar ham o'ziga xos tarzda Farida Afro'z she'riyatidan o'rin olgan.

Masalan, shoira quyidagi misralarda o'ziga tinchlik bermagan ana shu menini go'yo ifodasini berganday tuyuladi.

Ko'nglimday, ko'ngil hech, topmadim,

U yolg'iz, sargashta, darbadar.

Bu ne hol, ne sirdir, yo Rabbim,

Bu o'lim, to qadar, to qadar ?!

Ko'nglimday, hech ko'ngil ,topmadim ...

Bu tabiiy hol, ba'zan inson jamiyat ichida yashasa ham, ichki dunyosi bilan hamohang qalb topa olmaydi, go'yo o'zini yolg'izday sezadi. Shoira o'ziga o'xshash, uni tushunadigan ruh izlaydi. Bu ne hol, ne sirdir, yo Rabbim?! Ko'nglimday ... ko'ngil topmadim. Forscha: sargashta, darbadar ma'nosida keladi, misraga tasavvufiy ohang beradi. Qalbning yolg'izligi markaziy obraz sifatida namoyon bo'ladi, Haqni izlash jarayonidagi g'ariblik talqinida beriladi, ko'ngil - Haq tajallisi maskani, bu ijtimoiy yolg'izlik emas, Haq ishqini ko'targan qalbning yolg'izligi. Farida Afro'z she'riyatida ko'ngil konsepti ko'pincha: Ka'ba, oyna, sajdagoh ramzlari bilan yaqinlashadi. Afro'z lirikasida bu hol ayol qalbi sezgirligi bilan yanada noziklashadi, ya'ni ayol ruhiyati orqali ilohiy ishqni tavsiflashdir. O'lim esa poklanish bosqichi bo'lib, tasavvufdagi fano, baqo yo'liga mos nafsning o'limi demoqdir..

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida shu aytish mumkinki, Farida Afro'z she'riyatidagi lingvomadaniy leksik birliklar o'zbek xalqining mental obrazlari, qadriyatlari, tarixiy-madaniy tajribasi, ruhiy-estetik dunyoqarashi bilan bevosita bog'langan. Shoiraning uslubi aynan shu milliy madaniyatga tayangan milliy koloritni ifodasi sifatida berilgan shoda marvariddek so'z va iboralar orqali boy lingvomadaniy o'ziga xos poetik olamni shakllantiradi. She'riyatda go'yo yorga bo'lgan sog'inchni, maysaning quyoshga bo'lgan sog'inchidan kam emasligini his qildirgan shoira, ko'ksidagi hijron tufayli sanchilgan nayzalarni ham misoli gullaganday miliy koloritga xos tasvir doirasida lingvokulturologiyani mentalitetga xos ko'rinishini yuksak darajada shakllantirgan. Shoira milliy qadriyat va inson ma'naviyatni ifodalovchi, tabiat tasviri ifodasi orqali tizilgan, sevgi, turmush, oila va uy qadriyatlarini ifodalovchi, orzu, istak borasidagi estetik tushunchalarni ifodalovchi, ijodkorning meni, tasavvufiy qarashlarini ifodalovchi lingvomadaniy leksik birliklar asnosida tematik jihatdan rang-barang shaklni jilolantirib, mentalitetga xos milliy identitetni go'yo she'riyatdagi ifoda xaritasini tizib, poetik nutqning o'ziga xos jihatlarini, betakror misralarda tavsiflab berdi va uning she'riyatida milliy ruh, o'zbekona his-tuyg'ular , mental qadriyatlar murakkab poetik tizim sifatida mujassamlashtirildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бўтаева Фарида Афрўз . Ободим ёр. Қўшиқлар китоби . “PRAVO PRESS. Тошкент. 2019.
2. Бўтаева Фарида Афрўз. Мени кутинг... шеърлар. Шарқ нашриёти. Тошкент- 2023. 274 б.
3. Фарида Афрўз. Шам кўтариб... DAVR PRESS. Тошкент. 2010. 29 б .
4. Qurbonova M., Yo'ldoshev M. Matn tilshunosligi. Toshkent. Universitet 2014.
5. Topildiyeva F.R. Farida Afro'z she'riyatining lingvopoetik tadqiqi va o'ziga xos jihatlarini."Contemporary technologies of computational linguistics", 2024.
6. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. Toshkent. Fan-2007.